

FALSAFIY TA'LIMNING SIFATINI OSHIRISH - MA'NAVIY TARBIYA ASOSI

O. Tursunova ¹*Annotatsiya:*

Maqolada falsafiy ta'lim - tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumijtimoiy bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va ong, madaniyatli bo'lishga yetarli darajada falsafiy saboq olishi kerakligi yoritib berilgan

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, falsafiy ta'lim – tarbiya, shaxs, ijtimoiy ong, qonun, metod, hatti-harakat.

doi: <https://doi.org/10.2024/gsmfck95>

O'zbekiston fuqarolik jamiyati barpo etish sari qadam qo'yib, bu yo'lda falsafiy ta'lim-tarbiya, ijtimoiy ongni takomillashtirish masalalariga katta e'tibor berib kelmoqda. Bu mas'uliyatli vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bilan olib borish borasida ko'p qirrali ishlar qilinmoqda.

Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan: «Ta'lim to'g'risidagi qonun»i fikrimizning dalili bo'ladi. Jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun xalqning ijtimoiy madaniyatini oshirish lozim, bu esa savodxonlikni, falsafiy ta'lim-tarbiyani oshirishni talab qiladi.

XIX asr nemis qadriyatshunosi I.Rikkert bayon qilishicha: “Odamzod olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf kim bo'lganidan qat'i nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo'lgani shu bhasiz”.

Falsafiy ta'lim - tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumijtimoiy bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va ong, madaniyatli bo'lishga yetarli darajada falsafiy saboq olishi kerak. Lekin hozirgi paytgacha falsafiy ta'lim-tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to'liqligicha yoritilmagan.

Falsafiy ta'limning keng va tor ma'noda ko'rish mumkin. Keng ma'noda butun jamoaning, ko'pchilikning ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ta'lim, tor ma'noda esa alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'llari tushuniladi.

Falsafiy ta'lim natijasida keng omma yoki shaxs o'z hatti – harakatlarining ijtimoiy ekanligini tushunsa, axloq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, jamiyat normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi.

Demak, falsafiy tarbiya bu - tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» ta'sir qila oladigan, ularda ong, bilish, dunyoqarash, ijtimoiy normalarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlarga rioya qilish uchun, eng avvalo falsafani bilish kerak. Falsafiy ta'lim- tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga nima qilmoq mumkin, nima

¹ Tursunova Olmos Fayzievna, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

qilmoq mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, harakat yoki harakatsizlik nimadan iborat ekanligini yetkazmoq lozim.

Tartib buzuvchilar orasida o'z hatti-harakatining noqonuniyligini anglamaslik, noqonuniy ekan deb ham o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish ko'p uchraydi. Shunday tushuncha hosil bo'lmasligi uchun falsafiy ta'lim - tarbiya jarayonida har bir jamiyatda o'rnatilgan tartibni buzish, ijtimoiy munosabatlarga rioya etmaslik natijasida intizomiy, ma'muriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur.

Shaxs va jamiyat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning rivojlanish printsiplariga mos bo'lishi shaxs faoliyatini yo'naltirib turuvchi hayotiy pozitsiyaga bog'liq. Hayotiy pozitsiya esa ta'lim- tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu sababdan ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shaxs tarbiyasini jamiyat o'z na'zoratiga olgan va bu vazifani bajarishga eng dono kishilarga topshirgan. Shaxsni yashashga o'rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib kelgan. Ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror-bir foydali ishga, faoliyatga o'rgatish demakdir. Masalan, yoshlarni biror hunarga, muomalaga, san'atga, yurish turishga va boshqalarga o'rgatish.

Falsafiy ta'lim-tarbiya boshqa turdagi tarbiya bilan o'zaro yaqin. Masalan, shaxsda mehnatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda ko'r-ko'rona itoatkorlikka emas, balki jamiyat va davlat manfaatlariga, davlatning tartib va qonunlarini hurmat qilishga o'rgatish lozim.

Axloq normalari bilan falsafiy normalar bir biriga juda yaqin turadi. Shaxs axloqsiz bo'lsa, u falsafiy qonunlar talabiga rioya qilmaydi. Binobarin, bunday shaxsni falsafiy tarbiyalash samarasiz bo'ladi, hatto jazo choralari ham to'g'ri yo'lga solish qiyin.

Falsafiy ta'lim-tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi: davlat belgilangan qonun qoidalarini o'qitish; ularni jamiyat a'zolari o'rtasida tashviqot qilish; o'quvchi yoshlarni ijtimoiy munosabatlarda bevosita ishtirok etishga o'rgatish.

Ijtimoiy munosabatlarni o'qitish deyilganda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan dastur asosida shaxsga bilim berish tushuniladi. Falsafiy bilim berish umumiy va maxsus yo'nalishlarda bo'lish mumkin. Masalan, falsafa fakultetlarida, «faylasuf» malakasi beriladi. Xalq maorifi tizimining barcha bo'g'inlarida aniq dastur asosida umumiy falsafiy bilim beriladi.

Falsafiy fanlarni o'rganish jamiyat a'zolari bilishi lozim bo'lgan olam, inson va jamiyatning obyektiv-universal mohiyati, bilish, qadriyatshunoslik, insonning amaliy faoliyati, tafakkur shakllarini turli vositalar yordamida aholi orasida tashviqot qilishdir. Axloq falsafasini va nafosat falsafasini aholiga tushuntirish muhim printsipl bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, inson falsafasi, ijtimoiy falsafa, tabiat falsafasi, madaniyat falsafasi, san'at falsafasi, mafkura falsafasi, din falsafasi, siyosat falsafasi, huquq falsafasi, texnika falsafasi kabi fanlar ham jamiyat rivoji uchun muhim hisoblanadi.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi ma'lum vositalar, shakl va metodlar yordamida shaxsning ongiga ta'sir ko'rsatib, unda falsafiy yo'nalishlar, sohalar, tizimlar, umuman falsafiy g'oyalarni makon va zamon talabiga muvofiq holda tanlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Falsafiy ta'limning asosiy maqsadi shaxsda falsafiy nazariyani shakllantirish, yani insonning olamga bo'lgan munosabatini, olamni anglashi, qadriyatlar to'g'risdagi ma'lumotga ega bo'lishi, insonning predmetli-o'zgaruvchan, amaliy faoliyati, o'zgaruvchan faoliyat usullarini tarbiyalashdir. Falsafiy ta'lim-tarbiya shaxsning bolalik chogidan umrining oxirigacha davom etadigan tarbiyaviy jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon davrida shaxs oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktabda, maktabdan tashqari

muassasalarda, oliy ta'limda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash idoralarida falsafiy ta'lim-tarbiya oladi. Demak, falsafiy ta'lim-tarbiya bosqichma-bosqich beriladi. Bosqichli falsafiy ta'lim-tarbiya berishdan maqsad yoshlarning falsafiy bilimlar va ko'nikmalarini tarkib toptirishni uzluksiz ta'minlashdir.

Masalan, hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida falsafiy fanlar o'tilyapti.

Falsafiy ta'limning oldiga qo'yilgan umumiy vazifa shaxsga falsafiy tafakkur va unga amal qilish yo'llarini o'rgatish. Falsafiy ta'limning ijtimoiy vazifasi shaxsda insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarni hayotda qo'llay olish, «donishmandlikni sevish», «hikmatni qadrlash» qobiliyatini tarbiyalashdir.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri shaxsda hayot qonuniyatlarini yaxshi bilishga ehtiyoj o'yg'otish, yani o'zini mustaqil ravishda ijtimoiy munosabatlarga tayyorligini tarbiyalashga odatlantirishdir. Falsafa qonuniyatlariga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxs qonun va kategoriyalarga muntazam ravishda o'rganib boradi va boshqalarni ham shunday qilishga da'vat etadi.

Amaliyotda falsafiy ta'limning har xil turlari mavjud. Lekin bugungi kungacha aniq bir ilmiy tushunchaga asoslangan, ko'p qirrali falsafiy ta'lim-tarbiya shakllarini ko'rsatib beruvchi adabiyot deyarli yo'q. Bu ta'lim-tarbiya, yuqorida aytib o'tganimizdek, oilada, bog'chada, maktabda, kollej, lisey, bilim yurtlarida, oliy ta'lim muassasalarida olib boriladi. Falsafiy ta'lim-tarbiya tarbiyalanuvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi, ularni odob-axloq doirasida tutish uchun asos bo'la oladigan bilim berishdir. Lekin tarbiyachi faqat bilim beribgina qolmasdan, tarbiyalanuvchilarga har xil shaklda ta'sir ham o'tkazishi kerak.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning shakllari asosida fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari, professor-o'qituvchilarining olib borgan ishlarining tashqi ko'rinishidagi ta'sir yo'li, ta'sir etish usullari yotibdi.

Falsafiy ta'lim-tarbiya shakllari har bir shu ish bilan shug'ullanuvchi uslubida o'z ifodasini topadi.

Masalan, o'quv yurtlarida falsafiy ta'lim-tarbiya shakli, mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilarnikidan farq qiladi. O'quvchilarga dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda-suhbat, suhbatni falsafiy qoidalarini o'rgatish, o'yin darslari o'tkazish tariqasida olib boriladi.

Falsafiy ta'lim-tarbiya shakllari quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) falsafiy bilim; b) falsafiy tashviqot; v) jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ishlar; g) falsafa fani bo'yicha ilmiy ish olib boruvchilarning ilmiy ishlari bilan tanishish; d) faylasuflar jamiyati ishlarida ishtirok etish. Falsafiy ta'lim-tarbiyani jamoa o'rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin.

Yoshlarni falsafiy bilimga va falsafiy tarbiyaga jalb etishda yetuk faylasuflar bilan uchrashuv o'tkazilishi, savol-javob kechalari tashkil etilishi yoki faylasuflar uyushmalari to'zilishti ijobiy natija beradi. Individual yakka tarzda falsafiy bilim berishda, falsafiy tarbiyalashda shaxsga maxsus adabiyotlar tavsiya etilishi, unda qiziqish uyg'otish, tarbiyalanuvchining ruhiy holatini o'rganib, u qabul qila oladigan, tushuna biladigan tarzda suhbat olib borish maqsadga muvofiqdir.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning metodlari:

Faylasuflar falsafiy ta'lim-tarbiya metodlarini odatda ikki turga bo'ladilar: ishontirish va majburlash.

Falsafiy ta'lim-tarbiya metodi - bu bir necha muayyan yo'l va usullar yig'indisi bo'lib, ular asosida kishilar ongiga, dunyoqarashiga ta'sir qilinadi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda falsafaga hurmat hissi uyg'otiladi va ijtimoiy munosabatlarning buzilmasligi ta'minlanadi.

Eng asosiy metod bu – ishontirish metodi. Ishontirish orqali ijobiy natijaga erishilmasa, majburlash metodi qo'llanadi. Falsafiy ta'lim-tarbiyada bu ikki metodni birga qo'llash ham mumkin.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning ilmiy printsiplaridan yana biri o'rganilayotgan ijtimoiy munosabatlar yoki dunyoqarashning kelib chiqish sabablarini, unga obyektiv zarurat borligini tushuntirib berishdir. Agar tarbiyalanuvchi falsafa, borliq va dunyoqarashlarning vujudga kelishi, falsafiy qarashlarning umumiy asoslarini tushunib olsa, ayniqsa, hozir o'rganilayotgan globallashtirish jarayonlaridagi o'zgarishlarning bo'lishi sababini bilsa, uni bajarishga ongli ravishda yondoshadi, o'zida ham falsafiy amaliyotga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaga ilmiy yondoshish quyidagi faoliyatlardan tashkil topadi:

- o'rgatilishi lozim bo'lgan falsafiy qarashlarning nazariy va amaliy jihatlarini puxta o'zlashtirib olish;
- ta'lim-tarbiya obyektlarini o'rganish, ular bilan falsafiy dunyoqarash o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash;
- falsafaning tarixiy asoslari o'rganish va tahlil qilish;
- borliq shakllarini tushuntirish shakl va metodlarini tanlab olish;
- falsafiy ta'lim-tarbiya vositalarini tayyorlash;
- tarbiyalanuvchilarning fikrini o'rganish va savol-javob, bahs-munozaragaga tayyorlanish;

Falsafiy ta'lim-tarbiyani shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida yagona shakl va metodlar asosida olib borish ham ilmiy printsiptir. Ijtimoiy jarayonlarda tafakkur uslublarini qo'llash butun mamlakatda falsafiy ta'lim-tarbiyaga chuqur ilmiy yondoshishni taqozo qiladi. Hozir bu muhim ish faylasuflar va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiyaga har tomonlama yondoshish deb tarbiya maqsadining shaxs ongida shakllanishiga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash, ta'lim-tarbiya shakl va metodlariga ularga tayanishga aytiladi.

Bu vazifalarning zarur darajada amalga oshirilishi tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. Ikkala tomonning fikr almashishi, falsafiy tushunchalarga aniqlik kiritilishi, yakdillik asosida hayotiy holatining belgilab olinishi tinglovchilar ongiga tegishli o'zgarish kiritadi va uni boyitadi.

Masalan, tarbiyachi rivojlanish va taraqqiyot falsafasi bilan tinglovchilarni tanishtirmoqchi. Maqsad ularning ongiga rivojlanish va taraqqiyot tushunchalarini falsafiy talqinini aks ettirgan holda progress, rivojlanish jarayoni, sakrash, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish shakllariga muvofiq ish ko'ra olishni tarbiyalashdir. Buning uchun tarbiyachi masalaga keng yondoshib, yangilanish dialektikasi sabablarini dalillar yordamida ko'rsatishi, taraqqiyotning ilgarilab borish xususiyatini isbotlashi, uni ijro etish tartibini o'rgatish, ko'zda to'tilgan maqsadni misollar yordamida tushuntirishi kerak.

Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalab yetishtirish maqsadi umumtarbiyaning maqsadi barcha yo'nalishlarini bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi. Bu bir kishining emas, balki butun jamoaning burchidir. Falsafiy ta'lim-tarbiya ham bir kishining emas, chunki shaxsni har tomonlama shakllantirish uchun bir tarbiyachi barcha omillarni bilishga qodir emas. Bir pedagog falsafiy ta'lim-tarbiyaning bir yoki bir necha yo'nalishinigina shaxs ongida shakllantira olishi mumkin. Pedagog muayyan masala bo'yicha falsafiy ta'lim-tarbiyaga keng yondoshishi uchun shu masalaga aloqador omillarni tanlab olishi, ularni yagona bir mavzuga yig'ishi, misollar yordamida uyg'unlashtirishi kerak. Masalan, tinglovchida borliqning yashash shakllari haqida ma'lumot berilganida

o'qituvchi-o'quvchi qanday mavzularni o'rganishi kerakligini tanlab olishi, moddiy olam va materiya haqida falsafiy qarashlarni tushuntirishi, mavzuga taalluqli misollar topishi, materiyaning tarixiy talqinlari va zamonaviy talqinlarini, uning tizimli tuzilishini belgilashi, harakat, o'z-o'zidan harakat, nisbiy tinchlik, harakatning yo'qolmasligi va absolyutligi haqida ma'lumotlar to'plashi, so'ngra keng ta'lim-tarbiya mavzularini ishlab chiqishi va shu mavzu bo'yicha ish olib borilishi kerak. Lekin shuni unutmaslik lozim, falsafaning hatto biror yo'nalishini shakllantirish uchun ham falsafiy omillarning o'zigina kifoya emas: masalan, shaxsni qayta tarbiyalash uchun uning ongida burilish yasash, dunyoqarashiga, mehnat munosabatiga, madaniyat darajasiga ta'sir ko'rsatishi kerak. Agar u o'zini-o'zi tashkillashtirmas ekan, yana eski odatini davom ettiraveradi.

Binobarin, falsafiy ta'lim-tarbiyaga aloqador omillar ikki guruhga bo'linadi: tarbiyachining axborotga kiritiladigan omillar va tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillar. Ta'lim-tarbiya jarayonida ikkala guruh omillar baravar e'tiborga olinishi kerak.

Tarbiyachining axborotga kiritilgan omillari suhbat mavzusida qanday mavzu, falsafiy mavzu va muammolarni tushuntirmoq, asosiy maqsad nimaga qaratilganligini bilib olmoq. Masalan, olamning chekliligi va cheksizligi bo'yicha ta'lim-tarbiya: cheklilik, cheksizlik, potensial va aktual cheksizlik, nihoyasizlik va nomuayyanlikka oid ma'lumotlarni to'plashdan iborat. Tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillarda tarbiyachi tinglovchilarning qabul qilish darajasi, yoshiga, mahoratiga va boshqa xususiyatlariga e'tibor bergan holda tarbiya usulini tanlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Samarqand gazetasi, 10-dekabr 2016 yil № 99 (2038) 3-bet
- [2]. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
- [3]. Ishmuhamyev R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008.
- [4]. Nazarov Q. Falsafa asoslari. Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012. – 1008 b.
- [5]. Tursunova O; Sultanova G; Yazdanov Z. Falsafani o'qitish metodikasi. Samarqand, SamDU. 2022. – 226 b.
- [6]. Qo'shoqov Sh. Falsafa o'qitish metodikasi. Samarqand, SamDU. 2005. – 110 b.